

TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALAR KOMMUNIKATIV SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB YO'NALISHLARI**Qayumova Dildora Shokirovna**

Farg'ona viloyati yuridik texnikumi

“Mutaxassislik fanlari” kafedrası o'qituvchisi.

Telegram: +998 90 562 46 35, e-mail: dildoraqayumova1980@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.19313370>

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari fonida kasbiy ta'lim muassasalari, xususan texnikumlarda tahsil olayotgan talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi.

Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuvning mazmun-mohiyati ochib berilib, kommunikativ kompetensiyaning bo'lajak mutaxassislar tayyorlashdagi o'rni asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: ta'lim, kasbiy tayyorgarlik, kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, kreativ kompetensiya, professional ta'lim.

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyotini fan va ta'limsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Zero, har qanday davlatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi bevosita ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Shu bois, dunyoning yetakchi mamlakatlarida ta'limni rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida qaraladi¹.

O'zbekiston Respublikasida ham mustaqillikning ilk yillaridanoq ta'lim tizimini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Yosh avlodning zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashi, ularning intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish hamda jismonan va ma'nan barkamol shaxs sifatida shakllanishi ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

So'nggi yillarda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar mazkur yo'nalishda muhim natijalarga erishilayotganini ko'rsatadi.

Xususan, “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi ta'lim sohasini tartibga solishda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qildi. Ushbu qonunda ta'limning asosiy tamoyillari, tizimi, shakl va turlari aniq belgilab berildi.

Shuningdek, konstitutsiyaviy normalar orqali davlatning ta'lim sohasiga bo'lgan e'tibori yanada mustahkamlandi. Bu esa sifatli ta'lim xizmatlarini kengaytirish va zamonaviy mehnat bozori talablariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlashga xizmat qilmoqda.

Kasbiy ta'lim tizimida ham sezilarli o'zgarishlar amalga oshirildi. Jumladan, 2019-yil 6-sentabrdagi “Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Prezident farmoni ushbu sohani tubdan modernizatsiya qilish uchun muhim huquqiy asos bo'ldi.

Mazkur hujjatga muvofiq, texnikumlarda kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari joriy etilib, bitiruvchilarga oliy ta'lim muassasalarida o'qishni davom ettirish imkoniyati yaratildi².

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, zamonaviy ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv ustuvor o'rin egallaydi.

¹ O'. Umurzakov. Ta'lim tizimi islohotlari O'zbekistonda yangi uyg'onish davri poydevorini yaratadi. <https://xs.uz/uzkr/post/talim-tizimi-islohotlari-ozbekistonda-yangi-ujonish-davri-pojdevorini-yaratadi>

²Z. Xudoyberdiyev. Malaka va innovatsion o'zgarishlar samarali professional ta'lim tizimiga keng yo'l ochmoqda. <https://xs.uz/uzkr/post/malaka-va-innovatsion-ozgarishlar-samarali-professional-talim-tizimiga-keng-jol-ochmoqda>

An'anaviy yondashuvdan farqli ravishda, bu tizim nafaqat bilim va ko'nikmalarni egallashni, balki ularni amaliy faoliyatda qo'llash qobiliyatini ham nazarda tutadi. Shu nuqtai nazardan, kompetensiya tushunchasi ta'lim jarayonining markaziy kategoriyasiga aylanib bormoqda.

“Kompetensiya” atamasi lotincha *competere* so'zidan kelib chiqqan bo'lib, “mos kelmoq”, “qodir bo'lmoq” ma'nolarini anglatadi³. Ilmiy adabiyotlarda u muayyan sohada chuqur bilimga ega bo'lish, amaliy tajribani qo'llay olish va kasbiy vazifalarni samarali bajarish qobiliyati sifatida talqin etiladi.⁴ Shu bois, professional kompetensiya mutaxassisning nafaqat bilim darajasi, balki uning mustaqil fikrlash, muammolarni hal etish va yangi vaziyatlarga moslashish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi.

Kommunikativ kompetensiya esa professional kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi bo'lib, u shaxsning samarali muloqot olib borish, fikr almashish va turli ijtimoiy vaziyatlarda o'zini to'g'ri tutish qobiliyatini ifodalaydi. Bu kompetensiya, ayniqsa, insonlar bilan bevosita muloqot talab etiladigan kasblarda muhim ahamiyat kasb etadi.

Olimlar ta'kidlashicha, kommunikativ kompetensiya – bu muloqot maqsadi va vaziyatiga mos ravishda nutqiy xatti-harakatlarni tashkil etish, suhbatdoshni tushunish va o'z fikrini aniq ifodalash uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar majmuasidir. U nafaqat nutq madaniyatini, balki tinglash, fikrni tahlil qilish va muloqot natijalarini baholash kabi ko'nikmalarni ham qamrab oladi⁵.

Kommunikativ kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlariga shaxslararo muloqotni tashkil etish, aloqani davom ettirish va samarali fikr almashish, shuningdek, muloqot natijalarini tahlil qilish qobiliyatlari kiradi. Mazkur kompetensiya talabalarda ijodkorlik, tashabbuskorlik va mustaqil qaror qabul qilish kabi sifatning rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Shu bilan birga, kasbiy ta'lim muassasalarida talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish masalasi hali yetarlicha o'rganilmagan. Ko'plab ilmiy tadqiqotlar asosan umumiy o'rta va oliy ta'lim tizimiga qaratilgan bo'lib, texnikumlar doirasida bu yo'nalish alohida tadqiqotni talab etadi.

A.N. Kazarsevning fikriga ko'ra, “kommunikativ kompetensiya – bu muloqotning maqsadi, sohasi va vaziyatiga mos keluvchi nutqiy xatti-harakatlar orqali boshqalarni tushunish hamda o'z nutq dasturini yaratish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar majmuasidir. U nutq lingvistikasining asosiy tushunchalarini – usullar, turlar, matndagi gaplarni bog'lash vositalari va boshqalarni bilishni; matnni tahlil qilish ko'nikmalarini hamda turli soha va vaziyatlarda, suhbatdosh va maqsadni hisobga olgan holda og'zaki muloqot olib borish malakalarini o'z ichiga oladi.”⁶

Kommunikativ kompetensiya shaxsning umumiy kommunikativ xususiyati bo'lib, u turli sohalaridagi muloqot jarayonida zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka, shuningdek, emotsional va ijtimoiy tajribani qamrab oladi. Kommunikativ kompetensiyaning asosini quyidagilar tashkil etadi: muloqotni tashkil etish (shaxslararo muloqot ko'nikmalari), aloqani davom ettirish va saqlash, qayta aloqa o'rnatish hamda muloqot natijalarini tahlil qilish.

³ Ruscha-o'zbekcha lug'at / M.Q. Qoshjonov (tahrir hay'ati raisi) va boshqalar. O'zbekiston Sovet Ensiklopediyasi Bosh tahririyati. I tom. – T.: 1983. – 456-bet.

⁴A. Ashurov. Kommunikativ kompetensiya tushunchasi, uning mazmuni va mohiyati. https://journal.fledu.uz/wp-content/uploads/sites/3/2020/02/alisher_abdimavlanovich_ashurov

⁵Pedagogik kompetensiya va kreativlik asoslari / N.A. Muslimov, M.H. Usmonboyeva, D.M. Sayfurov, A.B. To'rayev. – Toshkent, 2015. – 7-bet.

⁶Kazartsev A.N. Nutq madaniyatini o'qitish: nazariya va amaliyot: darslik. 2-nashr.

Kommunikativ kompetensiya tushunchasi uning tarkibiy qismlari – “muloqot” va “kompetensiya” kategoriyalari orqali izohlanadi. Ushbu tushunchalarning shaxsda shakllanishi esa o‘z navbatida kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishiga olib keladi⁷.

Xulosa qilib aytganda, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish kasbiy ta‘lim tizimining samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. U nafaqat malakali mutaxassislarni tayyorlashga, balki ularning jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga ham xizmat qiladi.

Shu bois, ta‘lim jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish, amaliy mashg‘ulotlarni kengaytirish va muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e‘tibor qaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘.Umurzakov. Ta‘lim tizimi islohotlari O‘zbekistonda yangi uyg‘onish davri poydevorini yaratadi. <https://xs.uz/uzkr/post/talim-tizimi-islohotlari-ozbekistonda-yangi-ujgonish-davri-pojdevorini-yaratadi>
2. Z.Xudoyberdiyev. Malaka va innovatsion o‘zgarishlar samarali professional ta‘lim tizimiga keng yo‘l ochmoqda. <https://xs.uz/uzkr/post/malaka-va-innovatsion-ozgarishlar-samarali-professional-talim-tizimiga-keng-jol-ochmoqda>
3. Ruscha-o‘zbekcha lug‘at / M.Q. Qoshjonov (tahrir hay‘ati raisi) va boshqalar. O‘zbekiston Sovet Ensiklopediyasi Bosh tahririyati. I tom. – T.: 1983. – 456-bet.
4. A.Ashurov. Kommunikativ kompetensiya tushunchasi, uning mazmuni va mohiyati. https://journal.fledu.uz/wp-content/uploads/sites/3/2020/02/alisher_abdimavlanovich_ashurov
5. Pedagogik kompetensiya va kreativlik asoslari / N.A. Muslimov, M.H. Usmonboyeva, D.M. Sayfurov, A.B. To‘rayev. – Toshkent, 2015. – 7-bet.
6. Kazartsev A.N. Nutq madaniyatini o‘qitish: nazariya va amaliyot: darslik. 2-nashr.
7. B.Sapayeva. Kommunikativ kompetensiya tushunchasining mohiyati. Society and Innovation (Jamiyat va innovatsiyalar) maxsus son – 01 (2022) / ISSN 2181-1415. – 324-bet.

⁷B. Sapayeva. Kommunikativ kompetensiya tushunchasining mohiyati. Society and Innovation (Jamiyat va innovatsiyalar) maxsus son – 01 (2022) / ISSN 2181-1415. – 324-bet.